**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING**

# FARMOYISHI

2025-yil 29-aprel 129-10-0-F/25 Toshkent viloyati hokimiligi

**Viloyat hududida 2025-yilning yoz mavsumida suv havzalarida fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 20-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi akvatoriyalarining plyaj zonalarida dam oluvchilarning xavfsizligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 164-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, cho‘milish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarni oldini olish bo‘yicha yoz mavsumida viloyat hududidagi suv omborlari, daryolar, kanallar, dam olish maskanlari plyaj zonalari va basseynlarda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga muvofiq:

1. Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining yoz mavsumida cho‘milish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarni oldini olish va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida taqdim etilgan takliflari ma’qullansin.

2. Viloyat hududidagi suv omborlari, ochiq va yopiq suv havzalari dam olish maskanlarida (qo‘riqlanadigan va qo‘riqlanmaydigan daryolar, kanallar va anhorlar, plyaj zonalari hamda basseynlar) fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashga qaratilagan chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga;

Suv havzalari va dam olish maskanlari plyaj zonalarida (qo‘riqlanadigan) fuqarolarning cho‘milishi jarayonida xavfsizligini ta’minlash maqsadida bo‘lishi lozim bo‘lgan qutqaruv asbob-anjomlarining ro‘yxati 2-ilovaga;

Toshkent viloyati hududidan oqib o‘tuvchi Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron va Qorasuv daryolari, kanallar va anhorlarga yoz mavsumi davomida postlar kesimida shahar va tuman hokimliklari, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Toshkent viloyati boshqarmasi, “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi, hududiy Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar va Milliy gvardiya bo‘limlari bilan hamkorlikda

navbatchilik, nazorat va kuzatuv targ‘ibot postlari tashkil etiladigan xavfli hududlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i F.Xudoyberdiyev, Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i T.Aripov, Milliy gvardiya boshqarmasi boshlig‘i F.Abdullayev, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i A.Alimatov, Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i A.Mirzayev, “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi boshlig‘i B.Qurbonov, shahar va tuman hokimliklari bilan hamkorlikda:

shahar va tuman hududidan oqib o‘tuvchi daryolar, kanallar va anhorlarda (qo‘riqlanmaydigan) viloyat aholisi hamda mehmonlarining doimiy cho‘milish odat bo‘lib qolgan xavfli hududlar xatlovdan o‘tkazilsin, kelgusida cho‘milish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarning oldini olish bo‘yicha aniq choralar ko‘rilsin;

1-iyun kunidan, mazkur hududlarda cho‘kish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida, shahar va tuman hokimliklari, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi “O‘zbekiston” Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar va Milliy gvardiya bo‘limlari bilan hamkorlikda navbatchilik, nazorat va kuzatuv targ‘ibot postlari tashkil etilsin.

4. “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi boshlig‘i B.Qurbonov, o‘n kun muddatda, shahar va tumanlar hududidan oqib o‘tuvchi daryolar,kanallar, anhorlar va qo‘riqlanmaydigan qarovsiz qolgan suv havzalarida aholi tomonidan cho‘milishi doimiy odat bo‘lib qolgan va ilgari cho‘kish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalari yuz bergan hududlarga, aholiga aniq ko‘rinadigan joylarga “CHO‘MILISH QAT’IY TAQIQLANADI!” taqiqlovchi belgilarni o‘rnatsin.

5. Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i A.Alimatov, Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i T.Aripov, Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i A.Mirzayev, Sport boshqarmasi boshlig‘i R.Bobokulov, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i T.Arziqulov, Sanitar epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig‘i Q.Boqiyev, shahar va tuman hokimliklariga:

o‘n kun muddatda, ochiq va yopiq suv havzalarida, tashkil etilagan aholining dam olish va cho‘milish maskanlari plyaj zonalarida Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan shartnoma tuzgan holda, mavsumiy g‘avvosqutqaruvchilar navbatchiligi tashkil etilsin;

ochiq va yopiq suv havzalarida, dam olish va cho‘milish maskanlari plyaj zonalarida kuzatuv minoralari, qutqaruv qayiqlari, qutqaruv jiletlari, qutqaruv

aylanmasi, ovoz kuchaytirgich (megafon), xushtak va binokl, g‘avvoslik va qutqaruv asbob-anjomlari bilan ta‘minlansin;

o‘n kun muddatda, viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga murojaat etib, mavjud motorli, qutqaruv va suzish qayiqlarining hamda katomaranlarning texnik holati tekshiruvdan o‘tkazilsin, yaroqligi bo‘yicha xulosa olingandan so‘ng ulardan foydalanilsin;

suv havzalari basseyn va plyaj zonalarida tibbiyot xodimining navbatchiligi tashkil etilsin, fuqarolarga birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha kerakli dori-darmonlar bilan ta’minlansin;

26-may kuniga qadar, viloyat hududidagi mavjud ommaviy cho‘milish joylarining (qo‘riqlanadigan ko‘l, plyaj zonalari, basseynlar, ochiq suv havzalari) mavsumga tayyorgarligi, ularning qo‘riqlanishi, tibbiy va sanitariya-gigiena talablariga mosligi, joylarda cho‘kish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarni oldini olish bo‘yicha aholiga aniq ko‘rinadigan joylarga taqiqlovchi belgilar o‘rnatilganligi, dam oluvchi aholini qutqarishga ixtisoslashtirilgan tuzilmalarning tashkil etilganligi, xavfsizlik talablariga rioya etilishi o‘rganib chiqilsin;

shahar va tuman hokimliklari, ochiq va yopiq suv havzalari, dam olish

maskanlari plyaj zonalari va basseynlar rahbarlari bilan birgalikda o‘rganish davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rilsin va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga axborot berilsin.

6. Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Qoraboyev, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i A.Alimatov, Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklariga:

fermer xo‘jaligidagi dala maydonlarida mavjud barcha tomchilatib sug‘orish uchun mo‘ljallangan sun’iy suv hovuzlari to‘liq xatlovdan o‘tkazilsin;

sun’iy suv hovuzlarida aholini xavfsizligini ta’minlashda (atrofini o‘rash, cho‘milishni ta’qiqilovchi belgilar o‘rnatish, hovuz ichidan chiqish uchun arqon yoki boshqa vositalar o‘rnatish) choralari ko‘rilsin;

7. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi B.Kabulov mazkur farmoyish mazmun mohiyati mahalliy ommaviy axborot vositalari, davlat hokimiyati organlarining ijtimoy tarmoqlari sahifalari va veb saytlarida keng yoritilishi ta‘minlansin.

8. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish viloyat hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha guruh rahbari F.Mirzayev hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i A.Alimatovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent viloyati hokimi** **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyati hokimining
2025-yil 29-apreldagi
129-10-0-F/25-son farmoyishiga
1-ilova

**Toshkent viloyati hududidagi suv omborlari, ochiq va yopiq suv havzalari dam olish maskanlarida (qo‘riqlanadigan va qo‘riqlanmaydigan daryolar, kanallar va anhorlarda plyaj zonalari hamda basseynlar) fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlashga qaratilagan chora-tadbirlar**

**REJASI**

| T/r | Tadbirlar nomi | Bajarish muddati | Bajaruvchilar |
|---|---|---|---|
| 1 | Toshkent viloyati shahar va tumanlari hududidan oqib o‘tuvchi daryolar, kanallar va anhorlarda, qo‘riqlanmaydigan yoki qarovsiz qoldirilgan suv xavzalarida viloyat aholisi va mehmonlarining doimiy cho‘milish odat bo‘lib qolgan joylari aniqlansin, aniqlangan joylar xatlovdan o‘tkazilsin, kelgusida cho‘kish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rish | 20-may-15-sentabr | Shahar va tuman hokimliklari, “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Milliy gvardiya boshqarmasi, Madaniyat, Kasbiy ta’lim, Xalq ta’limi, Sog‘liqni saqlash, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari, “O‘zbekiston” Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi |
| 2 | Toshkent viloyati hududidan oqib o‘tuvchi Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron va Qorasuv daryolari, kanallar va anhorlarga yoz mavsumi davomida postlar kesimida shahar va tuman hokimliklari, “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimi havza | 20-may-15-sentabr | Shahar va tuman hokimliklari, Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar, Milliy gvardiya, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari, “O‘zbekiston” Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | boshqarmasi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari, “O‘zbekiston” Yoshlar ittifoqi kengashi, hududiy Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar va Milliy gvardiya bo‘limlari bilan hamkorlikda navbatchilik, nazorat va kuzatuv targ‘ibot postlari tashkil etish | | |
| 3 | “Aholi tomonidan cho'milishi doimiy odat bo‘lib qolgan va ilgari cho‘kish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalari yuz bergan hududlarga, aholiga aniq ko‘rinadigan joylarga shi **CHO‘MILISH QAT’IY TAQIQLANADI! (КУПАНИЕ СТРОГО ЗАПРЕЩАЕТСЯ)** ma’nodagi taqiqlovchi belgilarni o‘rnatish | 20-30-may | Shahar va tuman hokimliklari, “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Milliy gvardiya boshqarmasi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari, “O‘zbekiston” Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi |
| 4 | Viloyat aholisi va mehmonlariga qo‘riqlanmaydigan, daryolar, kanallar va anhorlarda cho‘milish belgilanmagan (ruxsat etilmagan) hududlarda cho‘milish mumkin emasligi, taqiqlovchi belgilar o‘rnatilgan joylarda cho‘milmasliklari yuzasidan keng tushuntirish, targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borish | 1-iyun-15-sentabr | Shahar va tuman hokimliklari, “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Milliy gvardiya boshqarmasi, Madaniyat, Kasbiy ta’lim, Xalq ta’limi, Sog‘liqni saqlash, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari, “O‘zbekiston” Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi |
| 5 | Suv havzalarida tashkil etilgan aholining dam olish va cho‘milish maskanlari plyaj zonalarida | 5-iyun | Shahar va tuman hokimliklari, dam olish oromgohlari va suv havzalari bor |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | kuzatuv minoralari, qutqaruv qayiqlari, qutqaruv jiletlari, qutqaruv aylanmasi (*spasatelniy krug*), ovoz kuchaytirgich (*megafon*), svistok va binokl, g‘avvoslik va qutqaruv asbob-anjomlari hamda boshqa zarur anjomlar bilan ta‘minlash | | tashkilotlar |
| 6 | Suv havzalarida cho‘kish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarning oldini olish va tibbiyot xodimlarining navbatchiligini tashkil etish, fuqarolarga birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha kerakli dori-damonlar bilan ta’minlash | 1-iyun-<br>15-sentabr | Shahar va tuman hokimliklari, dam olish oromgohlari va suv havzalari bor tashkilotlar, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi |
| 7 | Bo‘stonliq tumani “Chorbog'” dam olish maskani plyaj zonasida “Suv havzalarida xavfsizlikni ta‘minlash, cho‘milish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarni oldini olish va sodir bo‘lganda qutqaruv tuzilmalari harakatlari” mavzusida amaliy o‘quv seminar o‘tkazish. | 5-iyun | “Chorbog'” dam olish maskani, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Milliy gvardiya boshqarmasi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari, “O‘zbekiston” Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, dam olish oromgohlari va suv havzalari bor tashkilotlar |
| 8 | Fermer xo‘jaligidagi dala maydonlarida mavjud barcha tomchilatib sug‘orish uchun mo‘ljallangan sun’iy suv hovuzlari to‘liq xatlovdan o‘tkazilsin;<br>sun’iy suv hovuzlarida aholini xavfsizligini ta’minlashda (atrofini o‘rash, cho‘milishni ta’qiqilovchi belgilar o‘rnatish, hovuz ichidan chiqish uchun arqon yoki boshqa vositalar | 20-may-<br>31-iyun | Viloyat qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasi, Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | o‘rnatish) choralari ko‘rilsin. | | |

Toshkent viloyati hokimining
2025-yil 29-apreldagi
129-10-0-F/25-son farmoyishiga
2-ilova

**Suv havzalari va dam olish maskanlarida (qo‘riqlanadigan) fuqarolarning cho‘milish jarayonida xavfsizligini ta'minlash maqsadida bo‘lishi lozim bo‘lgan qutqaruv asbob-anjomlarining taklif etilgan**
**RO‘YXATI**

| T/r | Inventarlar nomi |
|---|---|
| 1. | Kuzatuv minorasi (vishka) |
| 2. | Qutqaruv qayig‘i |
| 3. | Qutqaruv jiletlari |
| 4. | Qutqaruv aylanmasi (spasatel’niy krug) |
| 5. | Ovoz kuchaytirgich (megafon) |
| 6. | Xushtak |
| 7. | Binokl |
| 8. | Birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatish punkti |
| 9. | G‘avvoslik va qutqaruv asbob-anjomlari |
| 10. | Navbatchilik maskani (post) |
| 11. | G‘avvos-qutqaruvchilar navbatchilik jadvali va shartnomasi |

Toshkent viloyati hokimining
2025-yil 29-apreldagi
129-10-0-F/25-son farmoyishiga
3-ilova

**Toshkent viloyati hududidan oqib o‘tuvchi Sirdaryo, Chirchiq, Qorasuv va Ohangaron daryolari, kanallar va anhorlarga yoz mavsumi davomida postlar kesimida shahar va tuman hokimliklari, “Chirchiq-Ohangaron” irrigasiya tizimi havza boshqarmasi,Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi, “O‘zbekiston” yoshlar ittifoqi kengashi, hududiy Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar va Milliy gvardiya bo‘linmlari bilan hamkorlikda navbatchilik, nazorat va kuzatuv targ‘ibot postlari tashkil etiladigan xavfli hududlar**

**RO‘YXATI**

| Post raqami | Postlar joylashuvi | Navbatchilik, nazorat va kuzatuv targ‘ibot o‘tash tartibi | Ichki ishlar boshqarma va bo‘limidan | Favqulodda vaziyatlar b o‘l imid an | Milliy gvardiya bo‘linmasidan | Hokimlik va jamoatchilik kengashi mas’ullari |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Bo‘stonliq tumani “Chorbog‘” suv ombori** | | | | | | |
| 1-post<br>2-post<br>(2ta) | “Chorbog‘” suv omborining atrofidagi “Sijjak”, “Nanay”, “Bog‘iston”, “Boladala”, “Yakkatut”, “Burchmullo”, “Yusufxona” | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda va motorli qayiqda amalga oshiriladi | Bo‘stonliq tumani IIBdan 4 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 4 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | qishlog‘i qirg‘oq bo‘yi hududlari | | | | | |
| **“Chorbog‘”, Milliy bank NBU, “Gornyak”, “Metolurg”, “Oltin olma” dam olish maskani plyaj zonalari** | | | | | | |
| 3-post 4-post (2 ta) | “Charbog‘”, Milliy bank NBU, “Gornyak”, “Metolurg”, “Oltin olma” dam olish oromgohi plyaj zonalari | Plyaj zonalarida navbatchilik piyoda ravishda va kuzatuv postlari orqali har bir navbatchilik smenada 8 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IIBdan 4 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 4 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Oromgoh tomonidan tas diqlangan navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bo‘stonliq tumani “Ugam” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 5-post | “Ugam” daryosi 4R-2 “Toshkent-O‘sh avtoyo‘li ko‘prigi osti va atrofi” | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bo‘stonliq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bo‘stonliq tumani “Ko‘ksuv” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 6-post | “Burchmullo” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Ko‘k suv” daryosi qirg‘oq bo‘yi hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bo‘stonliq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bo‘stonliq tumani “Parkent” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 7-post | “Dumaloq” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Parkentt” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bo‘stonliq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bo‘stonliq tumani “Chirchiq” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 8-post | G‘azalkent shahridan oqib o‘tuvchi “Chirchiq” daryosi “Xojikent-GES”, “G‘azalkent- GES” oraliq hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi “Xojikent-GES”, “G‘azalkent-GES” | Bo‘stonliq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bo‘stonliq tumani “Chirchiq” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 9 post | “Chirchiq” daryosi plotina hududi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bo‘stonliq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| 10-post | “Chirchiq” daryosi Boyterak MFYdan oqib o‘tgan qismi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bo‘stonliq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 11-post | “Chirchiq” daryosi G‘azalkent shahridan oqib o‘tgan qismi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bo‘stonliq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bo‘stonliq tumani “Bo‘zsuv” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 12-post | “Baraj”, “Iskandar”, “Tovoqsoy”, “Ozodbosh” MFY hududidan, Turnalar maydoni orqasidan oqib o‘tuvchi “Bo‘zsuv” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bo‘stonliq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Bo‘stonliq tumani IKTBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Chirchiq shahar “Chirchiq” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 13-post | “Ramozon” ko‘chasidagi “Chirchiq” daryosi ko‘prigi osti va atrofi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chirchiq shahar IIBdan 2 nafar xodim | Chirchiq shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Chirchiq shahar “Quyi derivasion” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 14-post | “4R6” avtoyo‘lining 35,4 km. “ChTZ-1” ko‘prigidan – Oxunbaboyev ko‘chasi (Markaziy masjid) | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chirchiq shahar IIBdan 2 nafar xodim | Chirchiq shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ko‘prigigacha | | | | | |
| **Chirchiq shahar “Quyi derivasion” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 15-post | Oxunboboyev ko‘chasi (Markaziy masjid) ko‘prigidan – S.Ayni ko‘chasi “Oqqovoq” ko‘prigigacha | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chirchiq shahar IIBdan 2 nafar xodim | Chirchiq shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Chirchiq shahar “Bo‘zsuv” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 16-post | “4R6” avtoyo‘lining 28 km. A.Navoiy ko‘chasi “Oqqovoq” ko‘prigidan - “4K739(V)” avtomobil yo‘lining 1 km. “O‘zQQO‘ChMK” ko‘prigigacha | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chirchiq shahar IIBdan 2 nafar xodim | Chirchiq shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Chirchiq shahar “Zax” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 17-post | “8 mart” Sanatoriyasi ko‘prigidan – “Buston” sanatoriyasi ko‘prigigacha | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chirchiq shahar IIBdan 2 nafar xodim | Chirchiq shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Chirchiq shahar “Katta Keles” (Qozoq) kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 18-post | 3-chi kichik tuman ohirgi bekat ko‘prikdan- | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, | Chirchiq shahar IIBdan | Chirchiq shahar FVBdan | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | paligon yo‘lidagi ko‘prigigacha (3-mikrorayon) | piyoda ravishda amalga oshiriladi | 2 nafar xodim | 2 nafar xodim | | jadvaliga muvofiq |
| **Qibray tumani “Katta Keles” (Qozoq) kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 19-post | “Qozoq” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Qibray tumani IIBdan 2 nafar xodim | Qibray tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Qibray tumani “Bo‘zsuv” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 20-post | “4K739(V)” avtomobil yo‘lining 1 km. “O‘zQQO‘ChMK” ko‘prigidan - “4R6” avtoyo‘lining “Qizil” ko‘prigigacha | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Qibray tumani IIBdan 2 nafar xodim | Qibray tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga |
| **Parkent tumani “Parkent” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 21-post | “Surhi” MFY hududiddan oqib o‘tuvchi “Parkentt” kanali bo‘ylab 2 km masofa qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Parkent tumani IIBdan 2 nafar xodim | Parkent tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Parkent tumani “Parkent” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 22-post | “Istiqbol”, “Quriqso | O‘ng va chap | Parkent | Parkent | Milliy | Tuman |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | y", "Boyqozon", "Cho'qqayma" MFY hududidan oqib o'tuvchi "Parkentt" kanali PK+420dan PK+500 gacha 8 km oralikda hududlari | qirg'oqlarida oqim bo'ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | tumani IIBdan 2 nafar xodim | tumani FVBdan 2 nafar xodim | gvardiya 1 nafar xodim | hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Parkent tumani "Hamdam" kanali o'ng va chap qirg'oqlari** | | | | | | |
| 23-post | "Qo'rg'ontepa", "Yoshlik", "Markaziy", "Navbahor", "Oqtepa" MFY hududidan oqib o'tuvchi "Hamdam" kanali qirg'oq bo'yi aholi yashash hududlari | O'ng va chap qirg'oqlarida oqim bo'ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Parkent tumani IIBdan 2 nafar xodim | Parkent tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Yuqori Chirchiq tumani "Qorasuv" daryosi o'ng va chap qirg'oqlari** | | | | | | |
| 24-post | "Sakson ota", "Sergeli", "Markaziy", "Toshtuqo'zoq", "Kavardan", "Ittifoq", "Marifat", "Qorasuv", "Jumabozor", "Yangixayot", | O'ng va chap qirg'oqlarida oqim bo'ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Yuqori Chirchiq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Yuqori Chirchiq tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | “Obodon”, “Darxon”, “Usmonobod”, “Qizilsoy” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Qorasuv” daryosi qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | | | | | |
| **O‘rta Chirchiq tumani “Toshkent” suv ombori** | | | | | | |
| 25-post | “Toshkent” suv ombori atrofi perimetr bo‘ylab | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda va motorli qayiqda amalga oshiriladi | O‘rta Chirchiq tumani IIBdan 2 nafar xodim | O‘rta Chirchiq tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **O‘rta Chirchiq tumani “Qorasuv” daryo o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 26-post | “Ravotak” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Qorasuv” daryosi qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | O‘rta Chirchiq tumani IIBdan 2 nafar xodim | O‘rta Chirchiq tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Quyi Chirchiq tumani “B.10 kollektor” o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 27-post | “Yangi hayot” MFY hududidan o‘tuvchi “B-10 kollektori” 2 km qirg‘oq bo‘yi aholi yashash | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Quyi Chirchiq tumani IIBdan 2 nafar | Quyi Chirchiq tumani FVBdan 2 nafar | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | hududlari | | xodim | xodim | | |
| **Quyi Chirchiq tumani “Ohangaron” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 28-post | Pahtaobod hududidan o‘tuvchi “Ohangaron” daryosi qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Quyi Chirchiq tumani IIBdan 2 nafar xodim | Quyi Chirchiq tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Oqqo‘rg‘on tumani “Sirdaryo” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 29-post | “Sirdaryo” daryosi Madaniyat MFY qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Oqqo‘rg‘on tumani IIBdan 2 nafar xodim | Oqqo‘rg‘on tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Oqqo‘rg‘on tumani “Ohangaron” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 30-post | “Ohangaron” daryosi “Tolovul”, “Qushtamg‘ali” “Oytamg‘ali” MFY qishlog‘i qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Oqqo‘rg‘on tumani IIBdan 2 nafar xodim | Oqqo‘rg‘on tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Oqqo‘rg‘on tumani “Xonariq” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 31-post | “Xonariq” kanali “Guliston” MFY qirg‘oq bo‘yi aholi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, | Oqqo‘rg‘on tumani IIBdan | Oqqo‘rg‘on tumani FVBdan | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | yashash hududlari | piyoda ravishda amalga oshiriladi | 2 nafar xodim | 2 nafar xodim | | jadvaliga muvofiq |
| **Oqqo‘rg‘on tumani “Qonariq” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 32-post | “Qonariq” kanali “Guliston”, “Zarafshon” MFY qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Oqqo‘rg‘on tumani IIBdan 2 nafar xodim | Oqqo‘rg‘on tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Angren shahar “Ohangaron” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 33-post | “Oblik” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Ohangaron” daryosi ko‘prigi osti va atrofi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Angren shahar IIBdan 2 nafar xodim | Angren shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Angren shahar “Yangi Angren IES” kanal o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 34-post | 5/3-dahasi, 6-maktab yonidan oqib o‘tuvchi “Yangi Angren IES” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Angren shahar IIBdan 2 nafar xodim | Angren shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Ohangaron tumani “Ohangaron” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 35-post | “Ohangaron” daryosi “Uvak” MFY hududidan oqib o‘tuvchi qirg‘oq bo‘yi aholi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Ohangaron tumani IIBdan 2 nafar xodim | Ohangaron tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | yashash hududlari | | | | | |
| **Ohangaron tumani “Ohangaron” daryosi “Oblik” ko‘prigi yuqori qismi** | | | | | | |
| 36-post | “Ohangaron” daryosi “Oblik” avtomobil yo‘li ko‘prigi yuqori qirg‘oq bo‘yi hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Ohangaron tumani IIBdan 2 nafar xodim | Ohangaron tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligi tomonidan tas diqlangan navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Ohangaron tumani “Ohangaron” daryosi “Yonariq-Telov” ko‘prigi yuqori qismi** | | | | | | |
| 37-post | “Ohangaron” daryosi “Yonariq-Telov”avtomobil yo‘li ko‘prigi yuqori qirg‘oq bo‘yi hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Ohangaron tumani IIBdan 2 nafar xodim | Ohangaron tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Ohangaron tumani “Yalpog‘tepa” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 38-post | “Yonariq”, “Yalpoq” MFY Aqcha qishlog‘i hududidan oqib o‘tuvchi “Yalpoqtepa” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Ohangaron tumani IIBdan 2 nafar xodim | Ohangaron tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Ohangaron shahar “Xo‘jabaland” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 39-post | “Qo‘rg‘on” MFY hududidan oqib o‘tuvchi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, | Ohangaron shahar IIBdan | Ohangaron shahar FVBdan | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | "Xo'jabaland" kanali qirg'oq bo'yi aholi yashash hududlari | piyoda ravishda amalga oshiriladi | 2 nafar xodim | 2 nafar xodim | | jadvaliga muvofiq |
| **Olmaliq shahar "Bo'ka-Tanachi" kanali o'ng va chap qirg'oqlari** | | | | | | |
| 40-post | "Bo'ka-Tanachi" kanali ustidan o'tib Olmaliq shahriga borish ko'prigi yonida va 5/2 dahasidan oqib o'tish hududlari | Shahardan o'tuvchi qismining o'ng va chap qirg'oqlari 2 km masofa yo'nalishida piyoda ravishda | Olmaliq shahar IIBdan 2 nafar xodim | Olmaliq shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bekabod shahar "Dalvarzin" kanali o'ng va chap qirg'oqlari** | | | | | | |
| 41-post | "Muqumiy" MFY hududidan oqib o'tuvchi "Dalvarzin" kanali 500 metr qirg'oq bo'yi aholi yashash hududlari | O'ng va chap qirg'oqlarida oqim bo'ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bekobod shahar IIBdan 2 nafr xodim | Bekobod shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bekabod shahar "Xoz-yaz" kanali o'ng va chap qirg'oqlari** | | | | | | |
| 42-post | "Sayxun","Obod turmush", "Bobur", "Andijon" MFY hududidan oqib o'tuvchi "Xoz-yaz" kanali qirg'oq bo'yi | O'ng va chap qirg'oqlarida oqim bo'ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi. | Bekobod shahar IIBdan 2 nafr xodim | Bekobod shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligi navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | hududlari | | | | | |
| **Bekabod shahar “Sirdaryo” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 43-post | “Al-Xorazmiy”, “Nurli yo‘l” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Sirdaryo” daryosi qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bekobod shahar IIBdan 2 nafr xodim | Bekobod shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligi navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bekobod tumani “Sirdaryo” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 44-post | “Qushtamg‘ali”, “Yangi xayot”, “Nayman”, “Uyas”, “Achamayli” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Sirdaryo” daryosi qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bekobod tumani IIBdan 2 nafr xodim | Bekobod tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bekobod tumani “Do‘stlik” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 45-post | “Qushtamg‘ali”, “Nayman”, ”Uyas”, “Achamayli” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Do‘stlik” kanali qirg‘oq bo‘yi | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bekobod tumani IIBdan 2 nafr xodim | Bekobod tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | aholi yashash hududlari | | | | | |
| **Toshkent tumani “Zaxariq” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 46-post | “Navoiy”, “Abduraxmon”, “G‘ishtko‘prik”, “Ko‘kterak”, “Oqtosh” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Zaxariq” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Toshkent tumani IIBdan 2 nafr xodim | Toshkent tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Toshkent tumani “Damariq” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 47-post | “Bunyodkor”, “Chig‘otoy”, “Diydor” va “Ko‘ksaroy” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Damariq” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Toshkent tumani IIBdan 2 nafr xodim | Toshkent tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Zangiota tumani “Jun” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 48-post | “Erkin guzar”, “Xo‘jamazor”, “O‘rta” MFY | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, | Zangiota tumani IIBdan | Zangiota tumani FVBdan | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | hududidan oqib o‘tuvchi “Quyi jun” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | piyoda ravishda amalga oshiriladi | 2 nafr xodim | 2 nafar xodim | | jadvaliga muvofiq |
| **Zangiota tumani “Damashi” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 49-post | “Ilg‘or”, “Turopobod”, “Ramadon”, “Obod” “To‘qimachi”, “Saxovat”, “Nurobod” va “Achchisoy”, “Zarafshon” MFY hududidan oqi b o‘tuvchi “Damashi” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlari piyoda yurgan holda kuzatuv olib boriladi | Zangiota tumani IIBdan 2 nafr xodim | Zangiota tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Yangiyo‘l tumani “Chirchiq” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 50-post | “Chortoq”, “Beshkent”, “Epkendi” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Chirchiq” daryosi qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlari piyoda yurgan holda kuzatuv olib boriladi | Yangiyo‘l tumani IIBdan 2 nafr xodim | Yangiyo‘l tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Yangiyo‘l tumani “Jun” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 51-post | “Keng kechik”, “Xonqo‘rg‘on”, “Istiqlol”, “Dexqonobod” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Jun” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Yangiyo‘l tumani IIBdan 2 nafr xodim | Yangiyo‘l tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Yangiyo‘l shahar “Jun” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 52-post | “Navro‘z”, “Yangibog‘”, “Fayzobod”, “Ishchilar” shaharchasi, “Sabo” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Jun” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Yangiyo‘l shahar IIBdan 2 nafr xodim | Yangiyo‘l shahar FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Shahar hokimligining navbatchilik jadvali asosida |
| **Chinoz tumani “Chirchiq” daryosi o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 53-post | “Chirchiq” daryosi “Sirdaryo” daryosiga qo‘shilish qirg‘oq bo‘yi hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chinoz tumani IIBdan 2 nafar xodim | Chinoz tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Chinoz tumani “Jo‘n” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 54-post | “Turkiston” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Jo‘n” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chinoz tumani IIBdan 2 nafar xodim | Chinoz tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Chinoz tumani “Karer” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 55-post | “Yallama” MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Karer” kanali qirg‘oq bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng va chap qirg‘oqlarida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chinoz tumani IIBdan 2 nafar xodim | Chinoz tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Chinoz tumani “Sirdaryo” daryosi o‘ng qirg‘og‘i** | | | | | | |
| 56-post | Yangi Chinoz hududidan oqib o‘tuvchi “Sirdaryo” daryosining o‘ng qirg‘og‘i bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng qirg‘og‘ida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Chinoz tumani IIBdan 1 nafar xodim | Chinoz tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 2 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |
| **Bo‘ka tumani “Qonariq” kanali o‘ng va chap qirg‘oqlari** | | | | | | |
| 57-post | Xo‘jaqo‘rg‘on MFY hududidan oqib o‘tuvchi “Qonariq” kanalining o‘ng va chap qirg‘og‘i bo‘yi aholi yashash hududlari | O‘ng qirg‘og‘ida oqim bo‘ylab, piyoda ravishda amalga oshiriladi | Bo‘ka tumani IIBdan 1 nafar xodim | Bo‘ka tumani FVBdan 2 nafar xodim | Milliy gvardiya 1 nafar xodim | Tuman hokimligining navbatchilik jadvaliga muvofiq |

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning 10- va 12-moddalarida vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari belgilangan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 205-sonli, 2016-yil 20-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi akvatoriyalarining plyaj zonalarida dam oluvchilarning xavfsizligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 164-sonli qarorlari hamda viloyat hokimining ushbu buyrug‘i hisoblanishi belgilab qo‘yilsin.

**Izoh:** Viloyat shahar va tumanlari hududidan oqib o‘tuvchi daryolar, kanallar, anhorlar va qo‘riqlanmaydigan qarovsiz qolgan suv havzalarida aholi tomonidan cho‘milishi doimiy odat bo‘lib qolgan va ilgari cho‘kish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar yuz bergan hududlar ro‘yxati keltirilgan, aholiga aniq ko‘rinadigan joylarga **“CHO‘MILISH QAT’IY TAQIQLANADI! КУПАТЬСЯ СТРОГО ЗАПРЕЩЕНО!”** taqiqlovchi belgilar o‘rnatilgan joylarda cho‘milish taqiqlanadi;

Alohida hollarda cho‘kish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar yuz berganida aholi tomonidan hududiy IIB, FVB, MG navbatchilik qismiga tushgan chaqiruv murojaatiga asosan, hududiy hokimliklari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash va “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimi havza boshqarmalari mas’ul xodimlari, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar va Milliy gvardiya bo‘linmlari tomonidan zudlik bilan hamkorlikda voqiya sodir bo‘lgan hududlar daryolar, kanallar va anhorlar suv osti va qirg‘oq bo‘yi hududlarida qidiruv qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar hamda postlar kesimida targ‘ibot tadbirlari olib boriladi.